



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyoo Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
<i>Madazizova Difuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
"Qurilish jarayonlari texnologiyasi" fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Said Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Xakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi "muhosaba" va "tafakkur" amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehrining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы	211
Сулейманова Нилуфар Камиловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari	229
Abirova Umida Nazarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
Adhamova Diyora Sanjar qizi	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy	239
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
Hafizov Shahriyor Shavkatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari	248
Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
Kamolova Munajatxon Jaloldinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	259
Mamatova Aziza Bo'riboyevna	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	262
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarining kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
Maxkamova Dilafruz Aliyevna	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv	271
Normamatova Kamola Gulmamat qizi	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
S. Sh. Azamatova	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari	277
Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
Xolova Mohigul Shavkatovna	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
Xudoyberganov Atham	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish	291
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление	295
Кадирова Наргиза Азаматовна	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка)	298
Мамырбаева Дина	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	304
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	

GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING NAMUNAVIY MEZONLARI

Xolova Mohigul Shavkatovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Pedagogika ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda gender yondashuvning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Maqolada tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari hamda ta'lim jarayonida gender tenglikni ta'minlash orqali talabalarning intellektual faolligini oshirish yo'llari tahlil etilgan. Shuningdek, talaba-qizlarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini inobatga olgan holda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar va namunaviy mezonlar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda interfaol usullar, loyiha asosida o'qitish va refleksiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: gender yondashuv, tanqidiy fikrlash, talaba-qizlar, pedagogik mezonlar, refleksiya, interfaol usullar, shaxsiy rivojlanish.

Abstract: This article explores the theoretical and practical foundations of developing critical thinking among female students through a gender-sensitive approach. It emphasizes the significance of creating pedagogical conditions that take into account gender and sociocultural factors to foster analytical, reflective, and independent thinking. The study proposes model criteria for evaluating the effectiveness of gender-oriented educational strategies. Furthermore, the role of interactive learning methods, project-based teaching, and reflection technologies in enhancing students' cognitive activity and personal growth is substantiated.

Key words: gender approach, critical thinking, female students, pedagogical conditions, interactive learning, reflection, personal development.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические основы развития критического мышления у студенток на основе гендерного подхода. Особое внимание уделено педагогическим условиям, способствующим формированию у студенток аналитического и самостоятельного мышления с учётом их гендерных и социокультурных особенностей. Представлены модельные критерии, позволяющие оценить эффективность внедрения гендерно-ориентированных образовательных стратегий. Обоснована роль интерактивных методов, проектного обучения и технологий рефлексии в активизации познавательной деятельности обучающихся.

Ключевые слова: гендерный подход, критическое мышление, студентки, педагогические условия, интерактивные методы, рефлексия, личностное развитие.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida shaxsning har tomonlama kamol topishi, ijodiy fikrlashi va mustaqil qaror qabul qila oladigan barkamol avlodni tarbiyalash masalasi dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Shu jarayonda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish har bir talabaning bilimga nisbatan faol, tahliliy va reflektiv munosabatini shakllantiruvchi muhim ko'nikma sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning muhim nazariy va amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash – bu ma'lumotni tahlil qilish, baholash, dalillar asosida xulosa chiqarish, muammoga ijodiy yechim topish hamda o'z fikrini asoslab ifodalash qobiliyatidir. Ushbu ko'nikma shaxsning nafaqat o'quv jarayonida, balki kundalik hayotda ham ijtimoiy faolligini, mustaqil qaror qabul qilishini va mas'uliyatli pozitsiyasini mustahkamlaydi. Shu bois, oliy ta'lim tizimida, ayniqsa, talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Bugungi kunda gender tengligi nafaqat ijtimoiy adolat tamoyili, balki ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi pedagogik zarurat sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Gender tenglikni ta'min-



lash to'g'risida"gi Qonuni (2019–y.) va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020–y.) asosida ta'lim tizimida ayol va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratish, talaba-qizlarning ilmiy, ijodiy va ijtimoiy faoliyatini rag'batlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, gender yondashuv ta'lim jarayonida talaba-qizlarning shaxsiy va kognitiv imkoniyatlarini inobatga olgan holda individual rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda gender yondashuvning o'rni shundaki, u ta'limda tenglikni, ijtimoiy adolatni va o'zaro hurmatga asoslangan muhitni yaratadi. Bunday yondashuv orqali qizlarda o'z fikrini erkin ifodalash, dalil keltirish, mustaqil tahlil qilish va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish kompetensiyalari shakllanadi. Shu bilan birga, gender yondashuv pedagogik jarayonni insonparvarlik, hamkorlik va individual yondashuv tamoyillari bilan boyitadi.

Zamonaviy ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish interfaol metodlar, muammoli o'qitish, loyiha asosidagi faoliyat, refleksiya texnologiyalari hamda "debate", "case study", "brainstorming" kabi faol o'qitish usullariga tayanadi. Bunday metodlar talaba-qizlarni mustaqil fikrlashga, o'z nuqtayi nazarini himoya qilishga, muloqot madaniyatini rivojlantirishga o'rgatadi. Natijada ular nafaqat bilim egallovchi, balki tahlil qiluvchi va qaror qabul qiluvchi faol sub'ekt sifatida shakllanadi.

Shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ijtimoiy-madaniy muhit, oila va o'qituvchi shaxsiy namunasining o'rni ham beqiyosdir. O'qituvchining gender sezgirliigi, pedagogik refleksiyasi hamda talaba-qizlarning psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda darsni tashkil etishi ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu bois, gender yondashuv asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – nafaqat ta'lim mazmunini boyituvchi, balki jamiyatda faol, mustaqil, o'z fikriga ega bo'lgan ayollar avlodini shakllantiruvchi omildir.

Mazkur tadqiqotda talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning ilmiy asoslari, pedagogik shart-sharoitlari, interfaol metodlarning samaradorligi hamda gender yondashuv asosida ishlab chiqilgan namunaviy mezonlar tahlil qilinadi. Ushbu mezonlar talabalarning fikrlash jarayonini baholash, mustaqillik, tahliliy yondashuv, muloqot va ijodkorlik darajalarini aniqlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va gender yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni masalasi so'nggi yillarda nafaqat O'zbekiston, balki jahon pedagogikasida ham keng ilmiy izlanishlarning markazida turibdi. Ushbu yo'nalishda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar, metodik tavsiyalar va pedagogik tajribalar ushbu tadqiqot uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Avvalo, tanqidiy fikrlash tushunchasi G. Dyū (J. Dewey), R. Ennis (R. Ennis), D. Halpern (D. Halpern), E. Pol (E. Paul) va M. Lipman (M. Lipman) kabi mutafakkirlar asarlarida keng yoritilgan. G. Dyū tanqidiy fikrlashni "tafakkurning refleksiv shakli" deb ta'riflab, insonning mavjud bilimni tahlil qilish, shubha ostiga olish va dalillar asosida yangi xulosaga kelish qobiliyati sifatida talqin etgan. D. Halpern esa tanqidiy fikrlashni "muammoni hal etishga qaratilgan ong, nazoratli va mantiqiy fikrlash jarayoni" deb belgilaydi. Ushbu qarashlar tanqidiy fikrlashning shaxsiy rivojlanish va ta'lim samaradorligidagi muhim rolini ochib beradi.

O'zbekistonlik pedagog olimlar ham bu yo'nalishda salmoqli ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Jumladan, N. Azamova, M. Qurbonov, D. Jo'raeva, S. Qodirova, Sh. Mirziyoyeva va boshqa tadqiqotchilar o'z ishlarida talabalarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirishning didaktik, psixologik hamda metodik asoslarini yoritganlar. Ularning fikricha, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish va refleksiya mexanizmlarini o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab etadi.

Gender yondashuv nazariyasi esa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ijtimoiy fanlar, ayniqsa, pedagogika sohasida muhim o'rin egallay boshladi. G'arb olimlaridan S. de Bovuar (S. de Beauvoir), J. Butler, N. Chodorow, K. Gilligan kabi tadqiqotchilar gender tengligi, ayollar psixologiyasi va ularning ijtimoiy roliga oid fundamental nazariyalarni ishlab chiqdilar. Ularning tadqiqotlari ta'limda gender sezgirlik, teng imkoniyat va individual yondashuv zarurligini asoslab berdi.

Mahalliy olimlar orasida D. Saidova, M. Yo'ldosheva, S. To'raeva kabi tadqiqotchilar O'zbekiston ta'lim tizimida gender tenglikni ta'minlash, talaba-qizlarning faolligini oshirish, ularning ijtimoiy va ilmiy hayotdagi o'rnini kuchaytirish masalalarini ilmiy asosda o'rganib chiqishgan. Ularning tadqiqotlarida gender yondashuv pedagogik jarayonning insonparvarlik, tenglik va o'zaro hurmat tamoyillari bilan uyg'unlashgan shakli sifatida ko'rsatilgan.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda gender yondashuvning qo'llanishi esa o'ziga xos innovatsion yo'nalish hisoblanadi. Chunki bu ikki konsepsiya – biri kognitiv jarayonlarni chuqurlashtirishga, ikkinchisi esa ijtimoiy tenglik va psixologik qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik nazariyalar, jumladan, konstruktivizm (J. Piaget, L. Vygotskiy) va kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan ta'lim modellari ham shaxsning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishni, mustaqil fikr yuritish va refleksiya qilish ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.



Bundan tashqari, Bloom taksonomiyasi, De Bono “6 ta shlyapa” metodi, “Insert”, “Fishbone”, “Debate” kabi metodlar talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita sifatida o'zini oqlagan. Gender yondashuv nuqtayi nazaridan bu metodlar talaba-qizlarning psixologik xususiyatlariga moslashgan, ularni erkin muloqotga, dalil asosida fikr bildirishga va o'z nuqtayi nazarini himoya qilishga undaydi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda ta'lim tizimida gender tenglikni ta'minlash, ayniqsa, talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasida kompleks metodologik asos yaratish zarurati mavjud. Shu bois, mazkur tadqiqotda ilgari surilayotgan namunaviy mezonlar talaba-qizlarning tanqidiy fikrlash darajasini baholash, ularning mantiqiy tahlil, muloqot, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini o'lchashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda gender yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rnini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda ma'lumotlar empirik va nazariy manbalardan yig'ildi. Empirik ma'lumotlar oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan kuzatuvlar, so'rovnomalarda va tajriba–sinov mashg'ulotlari orqali olindi. So'rovnomalarda talaba–qizlarning tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va muloqot ko'nikmalarini aniqlashga e'tibor qaratildi. Nazariy ma'lumotlar esa ilmiy adabiyotlar, Prezident qarorlari hamda gender va pedagogika sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalardan olingan. Olingan ma'lumotlar sifat tahlili, taqqoslash va umumlashtirish metodlari yordamida qayta ishlanib, tahlil natijalari asosida tanqidiy fikrlashni baholash mezonlari ishlab chiqildi. Shu orqali gender yondashuv asosida ta'lim jarayonining samaradorligi aniqlanib, amaliy xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash, xususan, talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini va intellektual salohiyatini rivojlantirish masalalari davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Shu munosabat bilan pedagogik faoliyatda gender yondashuv asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili bir qator muhim natijalarni ko'rsatdi.

Birinchidan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda gender yondashuvning o'rne bevosita ta'lim jarayonining shaxsga yo'naltirilganligiga bog'liq. O'tkazilgan amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, talaba-qizlar o'quv jarayonida o'z fikrini erkin ifoda etish, muammoni mustaqil hal etish va qaror qabul qilishda yetarlicha ishonchga ega emaslar. Shu bois, pedagoglar tomonidan interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar asosidagi topshiriqlar va guruhli ishlarda gender tenglikni hisobga olgan holda yondashish zarurligi aniqlangan.

Ikkinchidan, o'tkazilgan tajriba–sinov mashg'ulotlari davomida tanqidiy fikrlashni baholashning namunaviy mezonlari ishlab chiqildi. Ular quyidagi asosiy ko'rsatkichlarga tayandi:

1. Analitik fikrlash darajasi – talaba muammoni tahlil qilish, sabab–oqibatni aniqlash, dalillarni mantiqan asoslash qobiliyatiga ega bo'lishi;
2. Mustaqil fikr bildirish qobiliyati – o'z nuqtai nazarini mustaqil shakllantirish va dalillar bilan asoslab berish ko'nikmasi;
3. Muammoni hal etish yondashuvlari – muqobil yechimlarni ishlab chiqish, baholash va eng maqbulini tanlay olish;
4. Muloqot madaniyati – o'z fikrini madaniyatli, dalillarga tayangan holda, boshqalar fikriga hurmat bilan ifodalash;
5. Refleksiya va o'zini tahlil qilish – o'z faoliyatini baholash, xatolardan xulosa chiqarish va o'z ustida ishlash motivatsiyasi.

Bu mezonlar asosida olib borilgan diagnostika natijalari shuni ko'rsatdiki, gender yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda talaba-qizlarning tanqidiy fikrlash darajasi an'anaviy o'qitish shakllariga nisbatan ancha yuqori bo'ldi.

Uchinchi natija shundan iboratki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o'qituvchining metodik tayyorgarligi hal qiluvchi omil bo'lib chiqdi. Tajriba guruhida faoliyat yuritgan o'qituvchilar “Insert”, “Debate”, “Fishbone”, “SWOT–tahlil”, “6 ta shlyapa” kabi interfaol usullardan foydalanib, talaba-qizlarda tahliliy fikrlash, muammoga turlicha qarash va o'z fikrini mantiqan asoslash ko'nikmalarini rivojlantirdilar.

Shuningdek, o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalar va loyihaviy topshiriqlarni kiritish talaba-qizlarda mas'uliyat, ijodkorlik va jamoada ishlash madaniyatini mustahkamladi. Ular o'zlari tanlagan ijtimoiy yoki kasbiy muammolarni tahlil qilish jarayonida nafaqat o'z fikrini bildirdilar, balki dalillar asosida ishonarli xulosalar chiqarishni ham o'rgandilar.



To'rtinchidan, tadqiqot natijalariga ko'ra, gender yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim muhiti talaba-qizlarda psixologik ishonchni, o'ziga baho berish motivatsiyasini va ijtimoiy faollikni sezilarli darajada oshirgan. Ular o'z fikrini ochiq bildirish, jamoa oldida nutq so'zlash va tanqidiy savollar berishda ancha faol bo'lishgan.

Beshinchidan, tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, tanqidiy fikrlash faqat bilim darajasi bilan emas, balki emosional-intellektual rivojlanish bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu sababli gender yondashuv asosidagi ta'limda ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash, motivatsiya va muloqot madaniyatini shakllantirish muhim o'rin tutadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi umumiy natijalar chiqarildi:

- Gender yondashuv asosida o'qitilgan talaba-qizlarning tanqidiy fikrlash darajasi nazorat guruhiga nisbatan 40–45% yuqori bo'lgan;
- O'quvchilar orasida o'z fikrini erkin ifoda etish, savol berish va dalillar asosida ishonarli xulosa chiqarish ko'nikmalari sezilarli darajada oshgan;
- Talaba-qizlarda mustaqillik, mas'uliyat va ijtimoiy faollik kabi fazilatlar shakllangan;
- O'qituvchilar tomonidan gender yondashuv asosida tuzilgan metodik tavsiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda gender yondashuvni integratsiyalash – bu nafaqat ta'lim samaradorligini oshiruvchi omil, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy tenglik va kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlovchi strategik yo'nalishdir.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayonida gender yondashuvni inobatga olgan holda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – bu nafaqat o'quv faoliyatining sifatini oshirish, balki shaxsning ijtimoiy va intellektual o'sishini ta'minlovchi muhim pedagogik strategiyadir. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashning shakllanish darajasi o'qituvchining yondashuvi, ta'lim muhiti, o'quv materialining mazmuni va psixologik qo'llab-quvvatlash darajasiga bevosita bog'liqdir.

Tadqiqot natijalari tahlil qilinganida, gender tenglikni ta'minlash sharoitida tashkil etilgan mashg'ulotlarda talaba-qizlar o'z fikrini erkin ifoda etish, muammoga tahliliy yondashish va dalillar asosida xulosa chiqarishda yuqori faollik namoyon etganlari kuzatildi. Bu holat o'qituvchining metodik tayyorgarligi, interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish darajasi bilan chambarchas bog'liq bo'ldi.

Muhokama jarayonida, shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator omillar ham aniqlangan. Jumladan:

- ayrim o'qituvchilarda gender yondashuv bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarning yetishmasligi;
- talaba-qizlarning o'z fikrini ifoda etishda psixologik to'siqlarga duch kelishi;
- an'anaviy o'qitish metodlarida o'quvchi faolligiga emas, bilimni yod olishga urg'u berilishi;
- o'quv jarayonida raqamli vositalardan yetarli darajada foydalanilmasligi.

Biroq ushbu muammolarni bartaraf etish imkonini beruvchi ijobiy omillar ham mavjud. Ular qatoriga:

- gender tenglik tamoyillarini ta'lim siyosatiga integratsiyalash;
- pedagoglar uchun gender va tanqidiy fikrlash bo'yicha malaka oshirish dasturlarini joriy etish;
- o'quv jarayonida muammoli vaziyatlar, loyiha va tadqiqot faoliyatini keng qo'llash;
- o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, dalil asosida o'z nuqtai nazarini himoya qilishga o'rgatish kabi omillar kiradi.

Shuningdek, muhokama davomida gender yondashuv asosida ishlab chiqilgan namunaviy mezonlar tizimining afzalliklari aniqlanib, u talaba-qizlarning tanqidiy fikrlash darajasini baholashda aniq va o'lchab bo'ladigan mezonlar orqali aniqlash imkonini bergani qayd etildi. Ushbu mezonlar orqali talabalarning analitik fikrlash, muammoni hal etish, refleksiya va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini samarali baholash mumkinligi isbotlandi.

Muhokama natijalariga ko'ra, gender yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim muhiti nafaqat qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, balki ularning o'ziga bo'lgan ishonchini, ijtimoiy faolligini, liderlik qobiliyatlarini ham kuchaytiradi. Shu bilan birga, bu yondashuv o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlikka asoslangan, o'zaro hurmat va ishonch muhitini shakllantiradi.

Demak, muhokama jarayonidan kelib chiqadigan asosiy xulosalardan biri shuki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda gender yondashuvni pedagogik jarayon bilan integratsiyalash – bu hozirgi zamon ta'limi uchun zarur, innovatsion va samarali yo'nalishdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan ilmiy–tadqiqot ishlari natijalariga ko'ra, hozirgi zamon ta'lim tizimida gender yondashuv asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish talaba–qizlarning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar shuni ko'rsatdiki, tanqidiy fikrlashni shakllantirish nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki shaxsda mustaqillik, dalil asosida fikr yuritish va hayotiy qararlarni asosli qabul qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Birinchidan, gender yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim muhiti talaba–qizlarda o'z fikrini erkin ifoda etish, muammoni tahlil qilish, dalillarga asoslanish va turli nuqtai nazarlarni solishtirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunday yondashuv ta'lim jarayonida adolat, tenglik va hamkorlik tamoyillarining amaliy ifodasini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, ishlab chiqilgan namunaviy mezonlar tizimi talaba–qizlarning tanqidiy fikrlash darajasini aniqlash va rivojlantirishda samarali metodik vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu mezonlar orqali talabalarning analitik tafakkur, refleksiya, mustaqil qaror qabul qilish va muammoni hal etish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Uchinchidan, gender yondashuvni ta'lim jarayoniga integratsiyalash o'qituvchidan yuqori metodik tayyorgarlik, kommunikativ kompetensiya va psixologik sezgirlikni talab etadi. Shu sababli, pedagoglar uchun maxsus seminar–treninglar, amaliy kurslar va ilg'or tajribalar almashinuvi dasturlarini yo'lga qo'yish zarur.

To'rtinchidan, o'quv jarayonida interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, refleksiya mashg'ulotlari hamda raqamli vositalardan foydalanish talaba–qizlarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda yuqori natijalar beradi.

Beshinchidan, tadqiqot natijalari asosida gender yondashuv asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish quyidagi shart–sharoitlar mavjud bo'lganda samarali kechadi:

- o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro hurmat va ishonch muhitining yaratilishi;
- ta'lim jarayonida gender tenglik tamoyillariga rioya qilinishi;
- o'quv jarayonini talaba markazida tashkil etish;
- refleksiya va muloqot madaniyatini shakllantirish;
- o'quv dasturlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlarning mavjudligi.

Shunday qilib, olib borilgan tahlil, tajriba va muhokamalarga asoslanib, quyidagi umumiy xulosa chiqarish mumkin: gender yondashuv asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – bu shaxsni har tomonlama yetuk, ijtimoiy faol, mustaqil va mas'uliyatli fuqaro sifatida tarbiyalashning samarali yo'nalishidir. Mazkur yondashuv pedagogik jarayonga insonparvarlik, teng imkoniyat, muloqot va innovatsion fikrlash tamoyillarini olib kiradi.

Kelajakda bu yo'nalishda ta'lim tizimi uchun maxsus metodik qo'llanmalar, baholash mezonlari va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, gender asosida tanqidiy fikrlashni o'rgatuvchi pedagoglarning malakasini oshirish bo'yicha ilmiy–amaliy ishlarni kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ***"Gender tenglikni ta'minlashga doir qo'shimcha chora–tadbirlar to'g'risida"***gi PQ–4235–son qarori. – Toshkent, 2019–yil 7–mart.
3. Azamova N. Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
4. Saidova D. Oliy ta'limda gender yondashuv asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari. – Toshkent: Ilm ziyo, 2020.
5. Qurbonov M., Jo'raeva D. Interfaol metodlar asosida talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish. // Boshlang'ich ta'lim jurnali, 2021, № 2. – B. 55–61.
6. Dewey J. How We Think. – Boston: D. C. Heath & Co., 1910.
7. Halpern D. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. – New York: Psychology Press, 2014.
8. Chodorow N. The Reproduction of Mothering: Psychoanalysis and the Sociology of Gender. – Berkeley: University of California Press, 1999.
9. Gilligan C. In a Different Voice: Psychological Theory and Women's Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1982.
10. Butler J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. – New York: Routledge, 1990.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.